

# **Erasmus+ “MechaUz” loyihasi ishtirokchilarining uchrashuvi.**

Joriy yilning 16 may kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida, oliy ta'lim sohasida salohiyatni oshirish bo'yicha Erasmus+ loyihasi doirasida “MechaUz – g'oyalar va raqamli texnologiyalar orqali O'zbekiston bakalavriat dasturlari uchun mexatronika va robototexnikani modernizatsiya qilish” loyihasi ishtirokchilarining navbatdagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. g'oyalar va raqamli texnologiyalar” mavzusida ko'rgazma bo'lib o'tdi.



[www.polito.uz](http://www.polito.uz)



Yig'ilishda 13 ta tashkilot, jumladan, O'zbekistonning 6 ta oliy ta'lim muassasasi, jumladan: Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Andijon mashinasozlik instituti, Farg'ona politexnika instituti va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute vakillari ishtirok etdi



[www.polito.uz](http://www.polito.uz)



Yevropa Ittifoqi davlatining 6 ta universiteti, jumladan: Xalqaro Ellin universiteti (Gretsiya), Janubi-Sharqiy Yevropa tadqiqot markazi (Gretsiya), Vilnyus Gediminas texnika universiteti (Litva), Liepaja universiteti (Latviya), Vidzeme universiteti va Viana do Kastelo politexnika instituti (Portugaliya) vakillari qatnashdilar.



[www.polito.uz](http://www.polito.uz)



Uchrashuvda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalariga mexatronika va robototexnika yo'nalishi bo'yicha xalqaro standartlar bo'yicha, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradigan mexatronika bo'yicha zamonaviy o'quv dasturini 2-WPga ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi. Yig'ilish ishtirokchilari dasturning umumiy formati yuzasidan fikr almashdilar va kelgusida o'quv dasturini tashkil etuvchi o'quv modullarini atroflicha muhokama qildilar.





[www.polito.uz](http://www.polito.uz)



Shuningdek, loyiha faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritishga ham tegishli e'tibor qaratildi. Ijtimoiy tarmoqlar va jamoatchilik bilan aloqalarni yaxshilash bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqildi.

Uchrashuv yakunida O'zbekistonda ushbu sohani ommalashtirish, hamda tajribali muhandislar, yangi mutaxassislar va talabalar uchun ulkan aloqa platformasini yaratish imkonini beruvchi mexatronika muhandislari uyushmasini tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish taklif etildi.